

**M.SAPARNIYOZOVA, N.AHMEDOVA,  
D.ABDULLAYEVA**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHINI  
BAJARISH BO'YICHA USLUBIY  
TAVSIYALAR**



TOSHDO`TAU



0000000532

**Toshkent – 2012**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

---

---


**M.SAPARNIYOZOVA, N.AHMEDOVA, D.ABDULLAYEVA**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISH  
BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR**

**Uslubiy qo'llanma**

Qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri

Ta'lim yo'nalishi: 5141100 – O'zbek tili va adabiyoti



**Toshkent – 2012**

## Annotatsiya

Mazkur uslubiy qo'llanma o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabalari hamda usbu yo'nalish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari uchun uchun mo'ljallangan. Qo'llanma talabalarni ilmiy tadqiqotga yo'llash, bitiruv malakaviy ishi va kurs ishlariga qo'yiladigan talablar hamda uni bajarishga doir uslubiy ko'rsatmalar, ilmiy tadqiqot ishini shakllantirish masalalarini o'z ichiga oladi.

Taqrizchilar: O.TO'XTASINOVA, Qo'qon DPI O'zbek tilshunosligi kafedrası mudiri, filologiya fanlari nomzodi  
SH. HAYDAROV, Jizzax DPI O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Mazkur uslubiy qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti ilmiy kengashining 28.12.2012 yildagi 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

### **Bitiruv malakaviy ishi va unga qo'yiladigan talablar**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 9-iyundagi 225-sonli buyrug'i bilan "Oliy o'quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablar" qarori tasdiqlangan.

#### **Bitiruv malakaviy ishini bajarishning maqsad va vazifalari**

Bitiruv malakaviy ishini bajarish – oliy o'quv yurti bakalavriatida talabalarni o'qitishning yakuniy bosqichlaridir.

Malakaviy ishini bajarish maqsadi: ta'lim bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo'llash;

ijodiy ishlash, ishlab chiqilayotgan masalaning (muammoning) qo'yilish jarayonidan boshlab, uni to'la nihoyasiga yetkazish bo'yicha qaror qabul qilishda bo'lgan mas'uliyatni his etishga o'rgatish;

zamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnika va madaniyatning rivojlanishi sharoitida talabalarni mustaqil ishlashga tayyorgarligini ta'minlash.

#### **Bitiruv malakaviy ishlarning mavzusi**

Malakaviy ishlar mavzusi muammoning zamonaviy holatini va iqtisodiyot, ishlab chiqarish, texnika, ijtimoiy sohalar, fan, ta'lim va madaniyatning istiqbolli rivojlanishini aks ettirish kerak.

Malakaviy ishlar mavzusi mutaxassis chiqaruvchi kafedra tomonidan belgilanadi va oliy o'quv yurti yoki fakultetning ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi hamda uch yilda bir martadan ortiq ko'rib chiqilmaydi.

Malakaviy ishlar mavzusining yillik ro'yxati bitiruv amaliyoti boshlanishiga qadar yoki bitiruv kursining boshida e'lon qilinadi.

Talabalariga (reytinglari bo'yicha kamayish tartibida) malakaviy ishlarning tanlash huquqi beriladi. Talaba yoki talabaning o'qishi uchun

to'lov-kontrakt to'lovchi buyurtmachi zaruriy asoslar bilan malakaviy ishlar mavzusi bo'yicha o'z variantlarini taklif etishlari mumkin.

Malakaviy ish mavzusi va rahbari talabaga biriktirish kafedraning taqdimnomasi bo'yicha rektorning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Ish rahbari, malakaviy ishning mavzusiga muvofiq talabaga malakaviy ishga tegishli materiallarni to'plash bo'yicha (jumladan, malakaviy amaliyot o'tkazish davrida ham) topshiriq beradi. Topshiriqning shakli oliy o'quv yurtining o'quv bo'limi tomonidan belgilanadi. Topshiriq malakaviy ish bilan birgalikda Davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etiladi.

#### **Bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbarlik qilish**

Malakaviy ishlarga rahbarlar ushbu oliy o'quv yurtining professor va dotsentlar yoki ilmiy xodimlari boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari safidan tayinlanadi.

Malakaviy ish rahbari:

- topshiriq beradi;
- malakaviy ishning bajarilish jadvalini rejalashtiradi;
- asosiy adabiyotlar, ma'lumot va arxiv materiallarini hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi;
- talabalar bilan muntazam ravishda konsultatsiyalar o'tkazadi;
- malakaviy ishning bajarilish jarayonini nazorat etadi.
- talaba bajargan malakaviy ishning sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularning qaytarilishi yoki ko'chirilishiga yo'l qo'ymaydi.

Malakaviy ish rahbarining taklifiga binoan, kafedra malakaviy ish rahbarlik qilishga ajratilgan vaqt budjeti hisobidan ishning ayrim bo'limlari bo'yicha konsultantlarni taklif etishi mumkin.

Malakaviy ishning bo'limlari bo'yicha konsultantlar tayin etib, oliy o'quv yurtlarining professorlari va dotsentlari, ilmiy xodimlari hamda boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari

tayinlanishi mumkin. Konsultantlar talaba bajargan ishning muvofiq qismini tekshiradilar.

Mutaxassis chiqaruvchi kafedra malakaviy ishga qo'yiladigan majburiy talablar hajmini belgilagan holda malakaviy ishni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqadi va talabalarni taminlaydi.

Malakaviy ish berilgan topshiriq asosida shaxsan talaba tomonidan bajariladi.

Malakaviy ishning har bir bo'limi muvofiq asoslar, qarorlar va xulosalar bilan yoritiladi. Malakaviy ishda, ilgari bajarilgan mustaqil ishlarning natijalari yoki boshqa mualliflarning (ilmiy ma'ruzalari va maqolalari, hisob-grafika ishlari, kurs ishlari va loyihalari, albatta, nomlari ko'rsatilgan holda) ishlari aks ettirilishi yoki ulardan foydalanish mumkin.

Tushuntirish qismi (poyasnitelnaya zapiska) malakaviy ishning mazmunini qisqa va muayyan shaklda ifodalashi lozim. Zaruriy hollarda tushuntirish qismiga grafiklar, rasmlar, eskizlar, diagrammalar, sxema va boshqalar, shuningdek, zaruriy axborot yozilgan disketlar ilova etilishi mukin.

Tushuntirish qismi qo'lyozma shaklida rasmiylashtirilishi shart.

Tushuntirish qismi kamida 10-15 ming so'z hajmida belgilanadi.

Chizmalarning formati, shartli belgilari, shrift va masshtablari amaldagi talablarga qat'iy muvofiq kelishi zarur. Odatda, chizmalar A2 formatli qog'ozda (5-6 varaq hajmida) qalamda bajariladi yoki texnika vositalari orqali ekranda ko'rsatiladi. Arxitektura yo'nalishidagi chizmalarga qo'yiladigan talablar muvofiq o'quv-uslubiy birlashmalar (assotsiatsiyalar) tomonidan belgilanadi.

Kafedraning tavsiyasiga binoan malakaviy ish chet tillarning birida bajarilishi mumkin. Chet tilda bajarilgan ishga davlat tilidagi annotatsiya ilova etiladi va himoya vaqtida tarjima taminlanadi.

### **Bitiruv malakaviy ishining bajarilishi**

Malakaviy ish oliy o'quv yurtining, odatda, ushbu maqsadda maxsus ajratilgan xonalarida bajariladi. Ayrim hollarda, malakaviy ish korxonalar, muassasalar, ilmiy, loyihalash va boshqa muassasalarda bajarilishi mumkin.

Malakaviy ishning bajarilishi bo'yicha talabning hisobot berish muddatlarini dekanat nazorat etadi. Dekanat belgilagan muddatlarda, talaba malakaviy ishning bajarilishi haqida rahbar va kafedra mudiri oldida hisobot beradi. Kafedra mudiri malakaviy ishning tayyorlik holatini belgilaydi.

Talaba – ish muallifi, tanlangan qarorning to'g'riligiga va uning topshiriqqa muvofiqligiga, malakaviy ishda ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beradi.

### **Bitiruv malakaviy ishini himoya etish**

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan malakaviy ish talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi. Rahbar, malakaviy ish talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z taqrizi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabning faolligi, qaror qilingan qarorlardagi yangiliklar va malakaviy ishning boshqa ijobiy tomonlari tavsiflanadi. Kafedra mudiri, taqdim etilgan materiallar asosida, malakaviy ishni talaba tomonidan DAKda himoya qilishga kiritish haqida qaror qabul qiladi. Agar kafedra mudiri talabning malakaviy ishini himoyaga kiritish mumkin emas deb hisoblasa, masala kafedra yig'ilishida rahbar ishtirokida muhokama etiladi. Kafedra majlisining bayonnomasi fakultet dekani tomonidan tasdiq uchun rektorga taqdim etiladi.

Taqrizchilar tarkibi bitiruvchilarni iste'mol qiluvchi soha mutaxassislari safidan tanlanadi. Taqrizchilarga oliy o'quv yurtlarining professor va o'qituvchilari ham jalb etilishi mumkin.

Fakultet dekani malakaviy ishni taqriz bilan himoya uchun DAKka yuboradi.

Bitiruv malakaviy ishni himoya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi Nizomda belgilanadi.

BMI himoyasi zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida taqdimot (presentatsiya) shaklida tashkil etiladi va o'tkaziladi.

Arxiv, ARM va kafedralarda saqlanayotgan yoki internet resurslaridan foqdalani b aynan ko'chirib olinganligi rasmiy himoyagacha aniqlanib tasdig'ini topgan bitiruv malakaviy ishlari kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rector buyrug'I bilan bekor qilinadi va bitiruvchiga qoniqarsiz baho qo'yilib, ish rahbari keyingi 3 yil davomida BMI ga rahbar etib tayinlanmaydi.

OTM da axborot texnologiyalari vositasida taqdimot shaklida BMI himoyasini tashkil etish uchun yetarli darajada maxsus jihozlangan auditoriyalar belgilanadi.

Malakaviy ish himoyasidan so'ng (kamida 10 yil) oliy o'quv yurtida saqlanadi. Har xil masala bo'yicha bitiruv malakaviy ishni boshqalarga topshirish zaruriyati mavjud bo'lgan holda (tadbiq etish, tanlovlar va h.) ishdan nusxa olinadi (ishning asl nusxasi oliy o'quv yurtida qoldiriladi).

Bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbarning yozma xulosasi hamda ichki va tashqi taqrizchidan taqriz olinadi. Ilmiy rahbarning ish haqidagi xulosasida quyidagi masalalar yoritilishi shart:

1. BMI mavzusining dolzarbligi;
2. BMIning maqsad va vazifalari talaba tomonidan qay darajada yoritilganligi;
3. BMI mavzusidagi ilmiy yangiliklar;
4. Tadqiqot natijalarining qay darajada asoslanganligi;
5. Talabanning BMI yozishdagi shaxsiy mahorati;



6. BMI dan chiqarilgan xulosalarning nazariy-amaliy ahamiyati;
7. Ishning BMI larga qo'yiladigan talablarga moslik darajasi;
8. BMI mavzusining amaliyot bilan aloqasi va bog'liqligi.

BMI ga berilgan ichki va tashqi taqrizlarda quyidagi masalalar yoritilishi zarur:

1. BMI mavzusining dolzarbligi;
2. Tadqiqotning yangiligi;
3. Ishdagi ilmiy-amaliy natijalarning qay darajada asoslab berilganligi;
4. BMI ning amaliyot uchun ahamiyati;
5. BMI mazmuni va uning tugallanganlik darajasi;
6. Materialni bayon etish tili va uslubi;
7. BMI ning ilmiy-nazariy qiymati;
8. Ishning BMI larga qo'yiladigan talablarga moslik darajasi;
9. BMI ni yozishda talabning masalaga mustaqil yondasha olganligi va turli ilmiy-nazariy fikrlarga shaxsiy munosabati.

### **Bitiruv malakaviy ishi va uning mazmuni**

BMI ni yozish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- mavzuni to'g'ri tanlay olish;
- mavzuga oid adabiyotlarni o'rganib chiqish;
- mavzu bo'yicha faktik materiallar yig'ish;
- u yoki bu holatlarning ilmiy va amaliy ahamiyati hamda qiymatini asoslab berish, xulosalar chiqarish.

Ilmiy tadqiqot voqelikdagi biror narsa-hodisa haqida uning bevosita kuzatishda berilgan, xususiyliklarini kuzatish asosida narsa-hodisaning mavjudlik, yashash va rivojlanish qonuniyatlari haqida umumlashma hosil qilish jarayoni bo'lib, u ijtimoiy, sof insoniy, aqliy faoliyatdir. Shuning uchun ilmiy tadqiqot, bir tomondan, obyektiv, ya'ni tadqiqotchidan tashqarida turgan, unga bog'liq

bo'lmagan haqqoniy (real) borliq bilan, ikkinchi tomondan esa, shu borliqning shaxs (subyekt, tadqiqotchi) ongida in'ikosi bilan bog'liq bo'lgan subyektivlikka aloqador murakkab jarayondir. Uning shaxs bilan, subyektivlik bilan bog'liqligi Sharqu g'arbda mashhur juda qadimgi hikmatli so'zda "Hamma qaraydi, lekin hamma ham ko'rolmaydi" matalida o'z aksini topgan, zero ki, "ko'ra olish" maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'ziga xos tadqiq qurollari bilan qurollangan, ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lgan shaxslarga, mutaxassislarga xos harakatdir<sup>1</sup>.

Ilmiy tadqiqning muhim tarkibiy qismlardan biri tadqiq manbai (o'rganish obyekti)dir. Tadqiq manbai deganda ilmiy tadqiqning voqelikda mavjud bo'lgan, o'rganilishi kerak bo'lgan narsa-hodisa, ularning orasidagi munosabat - aloqalar, qonuniyatlarining xilma-xil ko'rinishlarda, shakl va turlarda yuzaga chiqishi tushuniladi. Nimada biror narsa-hodisani tavsiflash, aniqlash, sharhlash, ochish ilmiy tadqiq oldida maqsad qilib qo'yilgan bo'lsa, o'sha narsa tadqiq manbaidir. Tilshunoslik fanining tadqiq manbai inson tili, fikrini shakllantirish va uni ifodalashning eng asosiy vositasidir.

Tadqiq manbaiga turlicha yondashish mumkinligi bois fanda ayni bir tadqiq manbai turli jihatlardan va turli mufassallikda qayta-qayta o'rganilishi lozim va bu tadqiq mavzusida o'z aksini topishi zarur.

Ilmiy tadqiq mavzusi (odatda, ilmiy ishning sarlavhasi) tadqiq manbayiga va tadqiq predmetiga ishorani o'z ichiga oladi.

Ilmiy tadqiq mavzusi, odatda, ilmiy tadqiqotning sarlavhasidir.

**Sarlavha** qanchalik qisqa, ixcham va sermazmun bo'lsa, shuncha yaxshi. Chunki sarlavha qanchalik qisqa, aniq va mazmundor bo'lsa, ilmiy tadqiqotning shunchalik uqilgan va yetilganligiga ishora qilib turadi. Aksincha uzundan-uzoq sarlavha noqulay va ishning g'o'rliigi

---

<sup>1</sup> Незьматов Х. Лингвистик тадқиқ методикаси ва методологияси. –Бухоро, 2006.

nishonalaridan biridir. Sarlavhada ortiqcha soʻzlar boʻlmasligi kerak.<sup>2</sup> Mavzuning ixcham va aniqligi uning toʻliq uqilganligining nishonasidir.

Tadqiqot mavzusining oʻrganilish tarixi deganda tanlangan mavzu fanda kimlar tomonidan qay darajada oʻrganilganligi tushuniladi. Tadqiqotchi mavzuning oʻrganilish tarixini, yaʼni undan oldin shu masala boʻyicha kimlar nimalar qilganligini, qanday yutuqlarni qoʻlga kiritganlarini, qaysi muammolarni oʻrtaga qoʻyganliklarini tugal bilmogʻi lozim. Busiz tadqiqotchi ilmiy tadqiq ishiga kirishishi, hatto sarlavha belgilashi va asoslashi mumkin emas. Oʻrganayotgan (mutolaa qilayotgan) ilmiy-tadqiqiy asarlardagi ilmiy havolalar tadqiqotchiga yangi-yangi tadqiqotlarni topish va oʻrganish uchun yoʻllanmadir.

#### **Adabiyotlar bilan ishlash**

**Iqtibos** (arab. – ziyo olmoq), sitata – biror asardan soʻzma-soʻz olingan parcha, koʻchirma. Iqtibos adabiyotlarda sitata, havola, koʻchirma kabi nomlar bilan yuritiladi.

Iqtibos bayon qilinayotgan fikrni ishonchli fikr bilan quvvatlash, muayyan fikrni tanqid qilish uchun hamda muhim faktik material – misol sifatida qoʻllanadi. Iqtibos, asosan, ilmiy (koʻpincha gumanitar) va rasmiy nutqda ishlatiladi hamda qoʻshtirnoq bilan belgilanadi yoki alohida harf bilan yoziladi; shuningdek, manbaga havola qilinadi. Bunday koʻchirmalar foydalanuvchining fikri bilan qiyoslaganda uning mohiyatini toʻgʻri tushunish imkonini beradi. Masalan, badiiy adabiyotning, soʻzning gʻoyaviy-estetik taʼsir kuchi, ahamiyatini quroldan ham kuchliroq ekanligi toʻgʻrisidagi fikrni mustahkamlash masalasida P.Tursunning “Adabiyot zambarakdan zoʻr” yoki A.Qahhorning “Adabiyot atomdan kuchli” degan soʻzlarini yoki

<sup>2</sup> Неъматов Х. Лингвистик тадқиқ методикаси ва методологияси. –Бухоро, 2006.

bo'lmasa, "tig' yarasi bitar, ammo til yarasi bitmas" maqolini iqtibos sifatida qo'llash mumkin. Iqtibosdan ko'p hollarda epigraf va shior o'rnida ham qo'llaniladi. Agar muallif fikriga zarar yetmasa, iqtibosda orfografiya va punktatsiyani o'zlashtirish, so'z (so'zlar)ni tushirib goldirish mumkin (bunda ko'p nuqta bilan belgi qo'yiladi).

Ilmiy tadqiqotning muhim tarkibiy qismlaridan biri **ilmiy havolalar**dir. Ilmiy havolalar tadqiqotchining qanday manbalarga tayanib tadqiqot olib borganligini ko'rsatib turadi. Tadqiqotda havolalar, asosan, ikki turlidir. Bular:

- a) material, tadqiq hodisalariga, tajriba-sinov ishlariga havolalar;
- b) ilmiy tadqiqotlarga, tadqiqotchilarning fikrlariga havolalar.

Istalgan ilmiy tadqiqot hamisha faktlarga (faktik materialga) tayanadi. Bu faktik material tilshunoslik tadqiqotlarida tilning voqelanish ko'rinishlari - nutqdan (jonli so'zlashuv, sheva, yozuvchilarning asarlari v.h.dan), o'tkaziladigan tajriba-sinov natijalaridan, zarur holatda ilmiy tadqiqotlardan olinadi. Bularning barchasi tadqiqotchi va tadqiqot uchun material manbayidir. Ilmiy ishda keltirilgan har bir faktik materialning qaysi manbadan olinganligi aniq (tadqiqotni o'qiyotgan boshqa shaxs osonlikcha topa oladigan shaklda) ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Material manbayi, odatda, faktik material keltirilgach, qavslarda - juda ko'p hollarda shartli qisqartmalar bilan beriladi. Chunonchi, Qodiriy asarlarida moziy so'zi "o'tmish", "o'tgan zamon" ma'nosida qo'llaniladi: Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik (O'K-10).

Faktik materialning tur va xususiyatiga ko'ra havolada uning manbaini ko'rsatish ham xilma-xil bo'lishi mumkin. Faktik material manbayi tadqiqot matni ichida (chunonchi: "bir tilli" shevada r ma'lum pozitsiyalarda .... tushib qoladi. ....<sup>3</sup>) berilishi mumkin.

<sup>3</sup> Mirzayev M. O'zbek tilining Buxoro gruppasi shevalari. — Toshkent: Fan, 1968. 35-b.

Tajriba-sinov ishlari natijalari faktik material sifatida keltirilganda, natijalar e'lon qilingan bo'lsa, nashr manbayini, e'lon qilinmagan bo'lsa, o'tkazilgan o'rni va vaqti, uni qayd etgan muassasa ko'rsatilishi zarur.

Faktik material arxiv yoki muzey materiallaridan olinganda, arxiv (muzey), uning joyi, fond raqami (nomi), qayd raqami ko'rsatiladi. Faktik material havolasidan maqsad kitobxonning - zarur bo'lganda - shu ma'lumotni oson topishi va tekshira olishi ekanligini unutmaslik lozim.

Ilmiy ishda havolalarning ikkinchi turi tadqiqotchilarning ishlariga, fikrlariga ishoradir. Bunday havolalar ilmiy tadqiqotlarda, asosan, uch usul bilan keltiriladi:

1. Sahifaosti izohlar;
2. Matn ichida ajratilgan izohlar;
3. Bob (bo'lim, tadqiqot) oxirida keltirilgan izohlar.

Ilmiy ishlar, fikrlar manbayini ham (monografiya, maqola, ma'ruza v.h.) ilmiy tadqiqotlarda 4 turda berish mumkin.

1) muallif, asari, nashriyoti, yili, zarur betlarini to'liq ko'rsatgan holda;

2) raqamlash usuli bilan;

3) muallif va bosilgan yilini ko'rsatuvchi qisqartma holda;

4) tadqiqotchi lozim ko'rgan qisqartma shakllaridan birida beriladi.

Birinchi turdan, asosan sahifaosti izohlarda foydalaniladi. Bu usul fikrlar manbayini kitobxonga yetkazishning eng qulay usuli, lekin, birinchidan, juda ko'p joyni egallaydi. Ikkinchidan, havolalarni bunday berish kitobxon diqqatini chalg'itib turadi.

Ba'zan bu turdan bob yoki asar oxirida beriladigan izohlarda ham foydalanadilar. Bu holda tadqiqot matni ichida boshqa tadqiqotlarga, fikr manbalariga havola o'rnlari arab raqamlari bilan batartib belgilab boriladi va bob oxirida har bir tartib raqamlariga mos manba aniq va

to'liq ko'rsatiladi. Bunda bir muallifning ayni bir tadqiqoti takror-takror keltirilganda, birinchi keltirilishda to'liq berilib, qolgan o'rinlarda faqat muallif ko'rsatiladi va "Ko'rsatilgan asar" havolasi beriladi va shu o'ringa aloqador betlarga ishora qilinadi.

Havolalarni raqamlash usuli bilan berish eng tejamlı usuldir. Bunda bob oxirida "Foydalanilgan adabiyotlar" sarlavhasi ostida manbalar qat'iy alifbo tartibida beriladi. Matn ichida havola zarur bo'lganda shu manbaning bu ro'yxatidagi tartib raqami, undan keyin vergul qo'yilib, zarur betlar ko'rsatiladi, nuqta yoki nuqtali vergul qo'yiladi:

Chunonchi: "Odatda kommunikativ vaziyatning uch asosiy unsuri mavjud bo'ladi, ya'ni so'zlovchi, tinglovchi va mavzu yoki axborot. So'zlovchi muayyan axborotni tinglovchiga yetkazish uchun, albatta, vosita – tegishli kanalni tanlaydi. Bilamizki, asosiy kanal tilning o'zidir. Ammo axborotni to'la yetkazishda umumiy vaziyat va maqsadga muvofiq boshqa kanallar ham ishga tushiriladi. Bu o'rinda paralingvistik va ekstralingvistik vositalar nazarda tutiladi. Haqiqatan ham, turli jestlar, yuz ifodasi, boshni qimirlatish, gavda harakatlari, makon yaqinligi, ovoz tabiati, kiyimlar, so'zlovchi va tinglovchining ijtimoiy yoki boshqa maqomi kabi xilma-xil omillar kommunikatsiya jarayonida alohida qimmatga ega. Uzatilmoqchi bo'lgan axborotning mazmuni, maqsadi va tabiatiga uyg'un tarzda kommunikatsiya kanali tanlanadi." [139, 40]<sup>4</sup>

Demak, M.Yo'ldoshev bu fikrni shu shaklda "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati"da 139-raqam ostida keltirilgan manbaning 40-betidan olgan.

Matn ichida bir o'rinda bir necha manbaga havola etilganda, har bir manba raqami nuqtali vergul bilan ajratib boriladi.

Havolaning bu tejamlı usuli ham o'z noqulayliklariga ega. Birinchidan, fikr olingan manbani, tadqiqotchi kimlarning g'oyalari va

<sup>4</sup> Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан д-ри ...дис. – Тошкент, 2009, 87-б.

materiallariga tayanib ishlayotganligini bilish uchun kitobxon bob (ish) oxiriga qayta-qayta murojaat etishi zarur. Ikkinchidan, bunday tizimdan foydalanish muallifdan katta ehtiyotkorlikni talab qiladi. Zeroki, bitta raqamdagi xato manbani tamoman o'zgartirib yuboradi. Ilmiy ishda esa bu nafaqat qo'pol xato, balki salaflarga hurmatsizlik deb ham sanaladi.

Havolalarni uchinchi usulda (asar muallifi va uning bosilgan yiliga ishora etuvchi qisqartma bilan berish yo'li) ilmiy ishlarda eng qulay va tejamkordir. Bu usuldan havola berishning to'rtala turida ham bemalol foydalanish mumkin. Bu usuldan foydalanganda manbalarning shartli qisqartmalari yo ishning boshida - shartli qisqartmalar bo'limida, yoki ishning oxirida "Foydalanilgan adabiyotlar va ularning qisqartmalari" qismida to'liq ochib boriladi. Bunday qism ilmiy tadqiqotda, xususan, dissertatsiyalarda "Adabiyotlar ro'yxati" zaruriy qismi o'rnini ham bosadi.

**Hozirda BMLlarda havola berishning birinchi usulidan – muallif, asari, nashriyoti, yili, zarur betlarini to'liq ko'rsatgan holda sahifaosti izohlarda berish tavsiya etiladi.**

**Masalan:** O'zbek tilshunosligida bevosita ilova konstruksiyalarni o'rganishga bag'ishlangan dastlabki ish sifatida F.Ishoqovning maqolasini tilga olish mumkin.<sup>5</sup>

Ilmiy ishda havolalar quyidagi hollarda beriladi:

1. Biror tadqiqotchi (muallif)ning asaridan, ma'ruzasidan ma'lum bir fikr, izoh yoki ma'lumot aynan keltirilganda. Bunda bu olinma ko'chirma gap sifatida imlo qoidalariga mos ravishda berilgani ma'qul va oxirida olinma manbayi ko'rsatilishi shart. Bunday olinma bitta atama, bir-ikki so'z birikmasi yoki gap hajmida ham, katta (ba'zan bir-bir yarim bet) band (yoki abzaslar)dan iborat bo'lishi ham mumkin. Bunday olinmalarda tadqiqotchi olinmaning ma'lum bir

<sup>5</sup> Ishoqov F. Hozirgi zamon o'zbek tilida ilovall konstruksiyalar. FF Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari. 2-kitob. –Toshkent: O'zFA, 1961. –B. 285–294.

qismini tushirib qoldirsa, o'sha o'rin ko'p nuqta (...) bilan belgilanadi; bir qismini alohida bo'rttirib (kursiv, ajratilgan harflar ostiga chizish v.h. usullarda) ajratsa olinma ichidagi izohda ko'rsatilishi lozim.

2. Tadqiqotchi o'z fikrini bayon qilayotganda boshqa tadqiqotchilarning ismi shariflarini tilga olib, ularning materiallariga tayanib tahlil olib borayotganligini eslatganda ham manbalarga havola berishi zarur.

3. Tadqiqotchi biror hodisa (voqea) tavsifini berayotganda o'zgalarning ishlaridan olgan (o'zlashtirgan) ma'lumotlarni alohida ta'kid bilan ajratmay, o'z nutqiga singdirib borgan hollarda o'zlashtirilgan ma'lumot manbaji shu ma'lumotdan keyin ko'rsatilishi zarur.

Shuni esda tutish lozimki, boshqa tadqiqotchilar ma'lumot va talqinlaridan foydalanib, uni ilmiy ishda ko'rsatmaslik eng xunuk amaldir. Ilmiy ishda bunday o'rinlar bo'lsa, (yoki atigi bir abzaslik material birovdan olinib, manbaji ko'rsatilmagan bo'lsa) bu ish plagiat - ilmiy o'g'rilik mahsuli sanalib, xalqaro qonunchilikda o'z aksini topgan mualliflik huquqi qoidalari asosida bekor qilinadi.

Havolalar berilmagan yoki juda kam berilgan bitiruv malakaviy ishlari talabaning mavzuga doir adabiyotlar bilan tanishmaganligi yoki kam tanishganligini ko'rsatib turadi

### **Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy qismi**

Bitiruv malakaviy ishi tarkibi, odatda, quyidagi qismlarning bosqichlilik bilan joylashtirilishidan tashkil topadi.

1. Titul varaq (sarvaraq)
2. Mundarija
3. BMining umumiy tavsifi
4. Asosiy tadqiqiy boblar (uch bob shaklida)